

## ONA TILI TA'LIMIDA O'QUV TOPSHIRIQLARI ORQALI O'QUVCHILARNING NUTQIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH LINGVODIDAKTIKASI

Ashirboyeva Nafisa Aminbayevna

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13340633>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ona tili o'qitishda o'quv topshiriqlari vositasida o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishning lingvodidaktik, metodik jihatlarini mazmuni, mashq o'quv topshiriqlarining mohiyati va ularning mazmunini o'rgatishga doir pedagog, metodist, tilshunos olimlarning fikr-mulohazalari hamda ularning nazariy-metodik tavsiyalari keltirilib, ularga shaxsiy munosabat bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** ona tili ta'limi, o'quv topshiriqlari, lingvodidaktika, mashqlar ilmiy-nazariy asoslari, matn yozish va tuzishga o'rgatuvchi mashq va topshiriqlarning mazmuniy tarkibi, ijodiy tafakkur, ilmiy, mantiqiy, izchil fikrlash, leksik birliklar, yozma matn ustida ishlash.

### LINGUISTICS OF DEVELOPMENT OF SPEAKING SKILLS OF STUDENTS THROUGH STUDY TASKS IN MOTHER LANGUAGE EDUCATION

**Abstract.** In this article, the contents of the linguo-didactic and methodical aspects of the development of students' speaking skills in the teaching of the mother tongue, the essence of the training tasks and the opinions of pedagogues, methodologists, and linguists on teaching their content, as well as their theoretical-methodical recommendations were given and a personal attitude was expressed to them.

**Key words:** mother tongue education, educational tasks, linguodidactics, scientific-theoretical basis of exercises, content content of exercises and tasks teaching writing and composition, creative thinking, scientific, logical, consistent thinking, lexical units, work on a written text.

### ЛИНГВИСТИКА РАЗВИТИЯ РЕЗОВЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ УЧЕБНЫЕ ЗАДАЧИ В РУНОЯЗЫЧНОМ ОБРАЗОВАНИИ

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены содержание лингводидактических и методических аспектов развития речевых навыков учащихся средствами учебных задач при обучении родному языку, сущность учебных задач и мнения педагогов, методистов. лингвистам по преподаванию их содержания были даны свои теоретико-методические рекомендации, выражено личное отношение к ним.

**Ключевые слова:** обучение родному языку, учебные задачи, лингводидактика, научно-теоретическая основа упражнений, содержательное содержание упражнений и

*заданий по обучению письму и сочинению, творческое мышление, научное, логическое, последовательное мышление, лексические единицы, работа над письменным текстом.*

---

Ma'lumki, o'quvchilarning o'quv topshiriqlari orqali nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish ulardagi og'zaki monolog nutqining me'yoriy va asosiy kommunikativ nutq qobiliyatlari tizimini rivojlantirishning zaruriy aspekti tariqasida lingvodidaktik metodologiyaga uyg'unlik darajasida bo'lgan semantik segmentlar o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda uzluksiz aloqalar va munosabatlar rivojida aks etadi.

Ilmiy, pedagogik, psixologik, o'quv-metodik adabiyotlar, ilmiy maqolalar, manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning o'quv topshiriqlari orqali o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish muammosi tilshunos, metodist, pedagoglar soha mutaxassislari tomonidan turlicha talqin qilinib, turlicha yondashilgan. Umumiy o'rta ta'lim ona tili ta'limida o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun berilgan o'quv topshiriqlari konseptual asosida mantiqiy izchillik, ifodalilik, ravonlik, mazmun bo'lishini izohlab berishgan

R.N.Buneeva va E.V.Buneevalar<sup>1</sup> tomonidan o'quvchilarni gapning maqsadiga qarab gap turlari, mantiqiy urg'u, intonatsiyaga asoslangan gap turlari, sanab o'tish intonatsiyasi bilan tanishtirish va o'quv dasturida taqdim etilgan intonatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish uchun darslikdagi mashqlar va topshiriqlar ko'proq berilishi ta'kidlangan.

S.Matchonovning ta'kidlashiga ko'ra, "o'quv topshiriqlari shaklan ham, mazmunan ham o'ziga xos tartib-xususiyatga ega o'quv materialidir. Ular ma'lum shakl, mazmun va mezonlar asosida tuzilishi lozim"<sup>2</sup>. M.Saidovning "O'zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi" mavzusidagi "Modomiki, ona tili mashg'ulotlarining asosiy maqsadi o'quvchilarni fikrlashga, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish ekan, demak, o'quv topshirishlari bevosita amaliy maqsadlarga, ya'ni o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga bo'ysundirilishi kerak. O'quvchilarning so'z zahirasini oshirish, so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalarini shakllantirish, gaplarni kengaytirish va toraytirish, gap mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirish, ayni bir voqea, hodisa yoki ishlab chiqarish jarayonining ham oddiy, ham badiiy, ham ilmiy tasvirini bera olish; ko'rgan, kuzatgan, o'qigan, eshitgan voqea, hodisalarini bayon qilishga qaratilgan o'quv topshiriqlari nutqiy

---

<sup>1</sup> .Бунеев Р.Н., Бунеева Е.В. Русский язык. Программа // Программно-методические материалы. Русский язык. Начальная школа / Сост. Л.А. Вохмянина. - М.: Дрофа, 2002. - 73 с.

<sup>2</sup> Матжон С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 108 б.

faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar sirasiga kiradi”,- deydi<sup>3</sup>. Mashq – o‘quvchining dars jarayonidagi amaliy ko‘nikmalarini shakllantiruvchi faoliyat turi. Bu faoliyat o‘quvchini nazariy ma’lumotni tub mazmun mohiyatini o‘zlashtirish o‘zidan o‘tkazish, qaror qabul qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash hissiyotlarni boshqara olish kabi madaniyatni rivojlantiradi<sup>4</sup>.

O‘quvchilarga o‘quv topshiriqlarini o‘rgatish natijasida ularda faol va rivojlanib borayotgan leksika va fikr o‘zida boradi. Shular natijasida esa olingan bilimlar, ulardagi kognitivlik tizimlashadi. O. Roziqov boshchiligidagi tuzilgan “Ona tili didaktikasi” nomli darsligida o‘quv topshiriqlarini tuzish va bu boradagi ishlar ko‘lami yuzasidan quyidagicha yondashuv berilgan:

Mashq qilish uchun o‘quv topshiriqlarini tuzish jarayonida quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

A. Nutq shakllariga evristik, adaptiv, noadaptiv, alternativ ko‘rinishdagi o‘quv topshiriqlari miqdorini aniqlash.

B. Tuziladigan o‘quv topshiriqlari tizimida o‘quvchilarning ijodiy va qayta xotirlash faoliyatini hisobga olish.

D. O‘quv materiali mazmuniga ko‘ra topshiriqlarning turini aniqlash. Topshiriqlar tuzish jarayonida mavzuni mustahkamlashni inobatga olish bilan birga nutq va tafakkurni rivojlantirish masalalari diqqat markazida bo‘lishi kerak. Chunki o‘quvchilarning olgan bilimlari va mavzuni o‘zlashtirganlik darajasi nutq shakllari orqali namoyon bo‘ladi.

V.V.Repkin<sup>5</sup> tomonidan esa ifodali o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darsliklarda dialoglarni rollar bo‘yicha o‘qish uchun shunga o‘xshash mashqlar taklif etilishi matnni ifodali o‘qish qobiliyatiga urg‘u berilishi ta’kidlangan.

O‘quvchilarga o‘quv topshiriqlarini uzluksiz ishlash bosqichlarida nutqni o‘stirishga doir mashq va topshiriqlar ustida ishlashning lingvistik, psixologik, metodik jihatdan asoslangan metodikasini yaratish va ularda qiziqishning doimiyligini ta’minlash, suhbat mavzusini to‘liq qamrab olish, so‘zlarni talaffuz qilganda tinish belgilari savodxonligiga erishishga imkon berish, nazariy ma’lumotlarni, o‘quv materialini, turli matnlarni ifodali o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berish nutq madaniyatini rivojlantirishning o‘zida darajasini oshiradi.

<sup>3</sup> Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси. Пед.ф.н.диссертация. –Т.:2000. -16 б.

<sup>4</sup> Салиева П.А. Ўқитувчиларнинг касбий маҳоратини оширишда малака ошириш тизимидаги инновациялар. Ученый XXI века. 2017 й. № 9-10 (34). 6-10-б.

<sup>5</sup> Репкин В.В., Восторгова Е.В., Некрасова Т.В. Русский язык. Программа // Программно-методические материалы. Русский язык. Начальная школа / Сост. Л.А.Вохмянина. - М.: Дрофа, 2002. — 320 с.

## REFERENCES

1. Бунеев Р.Н., Бунеева Е.В. Русский язык. Программа // Программно-методические материалы. Русский язык. Начальная школа / Сост. Л.А. Вохмянина. - М.: Дрофа, 2002. - 73 с.
2. Матжон С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 108 б.
3. Репкин В.В., Восторгова Е.В., Некрасова Т.В. Русский язык. Программа // Программно-методические материалы. Русский язык. Начальная школа / Сост. Л.А.Вохмянина. - М.: Дрофа, 2002. — 320 с.
4. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси. Пед.ф.н.диссертация. –Т.:2000. -16 б.
5. Салиева П.А. Ўқитувчиларнинг касбий маҳоратини оширишда малака ошириш тизимидаги инновациялар. Ученый XXI века. 2017 й. № 9-10 (34). 6-10-б.